

sp

Xususiy ta'lim muassasalarida IT-texnologiyalari bo'yicha o'qish (dasturlash, veb-dizayner, animatsiya) uchun imtiyozli kreditlar taqdim etiladi.

Ajratiladigan mablag':  
20 million so'mgacha

Imtiyoz davri:  
4 yil

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 50 (16503)  
2022-yil, 27-iyul  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

E'tirof  
3-bet 7 yoshda  
15 million

Imkoniyating cheksiz!  
5-bet

"Hayot men uchun  
imkoniyat"

5 tashabbus olimpiadasi  
7-bet

Yangi kutubxona va  
5000 ta kitob



## YOZNI "KAMALAK" BILAN

"ZOMIN" BOLALARNI SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHIDA  
"YOZNI "KAMALAK" BILAN!" LOYIHASI O'TKAZILDI.

4-betga  
qarang

## MUAMMONI HAL QILISH UCHUN

# 25

## YIL KERAKMI?

Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

**Aksariyat umumta'lim maktablarida o'quvchilar bitta sinfda o'rtacha 31 nafarga yetgan. Shaharlarda esa 40-45 nafar bola o'tirgan sinfni ko'rsak ham ajablanmaymiz. Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2017-yilda tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomda sinfda o'quvchilar soni 35 nafardan oshmasligi belgilangan.**

**P**sixologlarning ta'kidlashicha, sinfdagi o'quvchilar soni nazariyada 25 nafardan oshmasligi kerak, lekin nizomda 35 nafar, amalda esa undan ortiq. Bu og'riqli mavzu haqida gap boshlar ekanmiz, mas'ullar bir necha yillardan buyon yig'ilib qolgan muammolar haqiqatdan ham ko'pligini, ta'lim va tarbiyaga hech kim befarq emasligini bildirdi. Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida so'zga chiqqan Bosh vazir o'rinbosari – Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri Jamshid Qo'chqorov bu yil maktablarni 500 ming nafar bola bitirganini, birinchi sinfga esa qariyb 700 ming bola kelayotganini aytib o'tdi.

**Xo'sh, bu yil maktablarni 500 ming nafar yigit-qiz bitirib, o'rniga 700 ming nafar bola kelar ekan, shu bir yil ichida nechta maktab qurildi?**

Xalq ta'limi vazirligi saytidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi besh yil ichida maktablar soni boryo'g'i 437 taga – 2016-yildagi 9692 tadan 2021-yilda 10129 taga ko'paygan. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, jami maktablar loyihaviy quvvati 5,06 million kishini tashkil qiladi. Ammo mamlakatda o'quvchilar soni (6,24 million nafar) sezilarli darajada oshib ketgan. 2022-23-o'quv yilida 700 ming nafar bola birinchi sinfga qabul qilinmoqda. Demak, bolalarning maktablarda minimal standartlarga muvofiq, o'qishlari uchun ular sig'imini 1,2 milliontaga kengaytirish kerak.

2022-yilda davlat tomonidan 410

milliard so'mlik 40 ta maktab qurish rejalashtirilgan. Bu o'tgan yilgidan deyarli ikki baravar ko'p, ammo bu maktablarda joy yetishmasligi muammosini hal qilish uchun hali ham yetarli emas. Yangi maktablar qurilishining bunday sur'ati bilan sinflarning to'lib-toshganligi va kamsig'imlik muammosini qisqa vaqt ichida hal qilib bo'lmaydi. Xususan, ta'lim muassasalari quvvatini 1,2 million kishiga kengaytirish uchun har biri 1200 o'rinni shartli 1000 ta maktab qurish zarur. Yiliga 40 ta maktab qurilsa, muammoni hal qilish uchun 25 yil kerak bo'ladi (agar o'quvchilar soni o'zgarmasa, biroq bu raqam yildan yilga oshib boradi).

Shu ketishda davom etsa, 2024-yilga borib maktablarning sig'imidan ortiqcha bo'lgan o'quvchilari qariyb 1,7 million nafarga yetishi mumkin. Bunday tendensiyaning kuzatilishiga maktab o'quvchilari soni tez ko'payib borayotgani emas, balki hukumatning nihoyatda kam maktablar qurishni rejalashtirayotganligi asosiy sabab hisoblanadi.

Misol uchun, keyingi uch yilida maktab o'quvchilari soni yiliga o'rtacha 170 mingtadan oshib boradi. Ammo maktablarning quvvati keyingi yilda 20 mingtaga, 2023-2024-yillarda esa mos ravishda 14 hamda 16 mintaga oshirilishi rejalashtirilgan. Boshqacha aytganda, maktablarning sig'imi ortishi o'quvchilar soni ortishidan 10 marta sekinroq o'sishi rejalashtirilmoqda.



### BIR SINFDA 12 BOLA

Modomiki, biz rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishga intilayotgan ekanmiz, yoshlarga bilim berishda o'sha davlatlardan o'rnak olishimiz kerak. Yaponiyada bir sinfda 12 nafar, ixtisoslashtirilgan maktablarda esa 9 nafar bola tahsil olar ekan.

Ta'lim sifati reytingida yetakchilik qiladigan Skandinaviya mamlakatlari bitta sinfda 19-20 nafardan o'quvchi jamlanadi. O'quvchilarni to'laqonli qamrab olish maqsadida bitta sinfga asosiy fan o'qituvchisidan tashqari yordamchi pedagog ham kiradi. Maktablarda o'rta hisobda 400 nafar o'quvchi ta'lim oladi, 40-45 nafar pedagog kadr mavjud. Demak, har bir o'qituvchiga 10 nafardan bola to'g'ri keladi.

Jahon ta'lim tizimi reytingida yetakchi o'rinlarda turadigan Finlandiya maktablarida 25 nafar o'quvchiga fanni ikkita o'qituvchi bo'lib o'tar ekan. Bu yerdagi davlat maktablarida har bir o'quvchi uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi.

**AQSh va Kanada maktablari** ham bitta sinfda o'quvchilar soni o'rtacha 15-20 nafarni tashkil qiladi. Ta'lim tizimi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etiladigan Singapur maktablarida ham bir sinfda o'rtacha 20 nafar o'quvchi tahsil olar ekan.

### QIMMATBAHO LOYIHALAR MUHIMMI YOKI TA'LIM?

O'zbekiston iqtisodiyotida byudjet taqchilligi ortib borayotgan bugungi kunda xarajatlar nisbatini to'g'ri yo'naltirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. E'tibor berilsa, bugungi O'zbekiston xarajatlarning, shu jumladan, tashqi qarzlarning ham juda katta qismi qurilishga yo'naltirilgan. Ammo samarasiz va kechiktirsa hech narsa o'zgarmaydigan yuzlab qurilishlar borki, ular ham byudjet sarfi ortishiga olib kelmoqda. Biror foyda keltirmagan, keraksiz forum, tadbirlarga bir necha maktablar qurilishiga yetadigan pullar sarflanyapti.

Yana bir masala, bitta Prezident maktabini qurish uchun 70-100 milliard so'm atrofida mablag' sarf qilinar ekan hamda bitta Prezident maktabining sig'imi 170 o'quvchiga mo'ljallangan, 410 o'quvchi uchun mo'ljallangan oddiy maktablarni qurish uchun esa o'rtacha 5,5 milliard so'm sarflanadi. Prezident maktablarining hammasini qurish uchun taxminan 1,2 trillion so'm sarflangan desak, bu mablag'ga oddiy maktablardan 217 ta qurish mumkin. Bu bir yilning o'zida maktablarning sig'imi qo'shimcha 90 mingtaga ortadi deganidir. **Maxsus maktablarni qurish uchun milliardlab sarflashga tayyormiz-u, ammo boshqa bolalarning normal standartlarga mos sinflarda o'tirishini ta'minlash uchun yetarli mablag' ajratishga ikkilanib qolamiz.**

Nazarimizda, bu masalaga yechim darslar sonini qisqartirish, maktablarda darsni ikki smenada qo'yish emas. Bizga ko'proq maktablar kerak, maktablar!



**MAMLAKATDA O'QUVCHILAR SONI (6,24 MILLION NAFAR)  
SEZILARLI DARAJADA OSHIB KETGAN. 2022-23-O'QUV YILIDA  
700 MING NAFAR BOLA BIRINCHI SINFGA  
QABUL QILINMOQDA.**

### FAQAT O'QITUVCHI AYBDOR EMAS!


O'quvchi ko'p bo'lsa, vaqt chegaralangan bo'lsa, pedagogga bog'liq bo'lmagan holda darsning sifati pasayadi. Ayniqsa, hali yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar bu borada qiynaladi. Bolalarni tinchlantirib, diqqatini darsga qaratish oson ishmi? Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom hamda belgilangan sanitar me'yorlari va qoi-

dalariga muvofiq, o'tilgan mavzuni so'rashga 7 daqiqa, yangi mavzu bayoniga 10 daqiqa, mustahkamlashga 10 daqiqa ajratilgan. Sinfda 35 o'quvchi bo'lsa, har biridan bir og'izdan gap so'rab, 1 daqiqadan vaqt ajratganda ham 35 daqiqa tugadi deyavering. Bir sinfda 40 nafar o'quvchi bo'lsa, hech bir muallim ularni savodli qilib tarbiyalay olmaydi. Demak, **maktablarda ta'lim sifatining pastligiga faqat o'qituvchi aybdor emas...**



# 7 YOSHDA 15 MILLION

Sardor SA'DULLAYEV tayyorladi.  
Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA



7 yosh. Hayot faslining eng yodda qolarli davrlaridan biri. Bu yoshda bolalar maktabga chiqishadi, yangi o'rtoglar orttirishadi, yozishni, o'qishni o'rganishadi. Lekin shunday bolalar borki, bu yoshda o'z yo'nalishini topib, xalqaro musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallamoqda.

Kichkinagina jussasi bilan katta yutuqlarga erishgan Ibrohim Jumanazarov shunday yoshlardan. U joriy yilning 15-25-iyun kunlari shaxmat bo'yicha Maldiv orollarida 8-18 yoshlilar o'rtasida bo'lib o'tgan G'arbiy Osiyo chempionatida 1 ta kumush, 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

Kuni kecha 7 yoshli chempion poytaxtimizdagi Yoshlar Ijod saroyida 15 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Tadbirda Ibrohim singari G'arbiy Osiyo chempionatida g'olib va sovrindorlikni qo'lga kiritgan yana bir nechta yosh shaxmatchilarga jami 186 million so'm pul mukofotlari taqdim etildi. Ularning ko'zidagi quvonchni yurak-yuragingizdan his qilay ekan-siz, xalqimiz orasida keng tarqalgan "Rag'bat - kelajak mevasi" degan naql qay darajada to'g'ri ekaniga yana bir bor amin bo'lasiz.

Har qanday vaziyatda ham doimo sen bilan birga bo'ladigan inson bu, albatta, ota-onadir. Ular biz uchun bizdan ko'ra ko'proq qayg'uri-

shadi, g'alabaga erishsak, bizdan ko'ra ko'proq xursand bo'ladilar va shunday farzandi bor ekanligini og'zidan bol tomib gapirib yuradilar. Bugun yosh shaxmatchilar erishgan yutug'idan ota-onalarining boshi osmonda.


## Mahmudaxon ISMOILOVA,

G'arbiy Osiyo chempionati g'olibi  
Abdumajid Botiraliyevning onasi:

- O'g'lim 6 yoshdan buyon shaxmat bilan shug'ullanib keladi. G'arbiy Osiyo chempionatida 3 ta oltin medalni qo'lga kiritib, yurtimiz sharafigini munosib himoya qilganidan juda xursandman. Erishgan yutuqlari uchun bugun u 31 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Men chempionning onasi sifatida boshqa ota-onalarga muvaffaqiyat yo'lida sabrli bo'lishlarini, farzandini doimo qo'llab-quvvatlashi kerakligini aytgan bo'lar edim.

**“**  
FIDENING YANGI REYTINGI  
E'LON QILINGANDA  
O'ZBEKISTON O'Z TARIXIDA  
ILK BOR KUCHLI 20  
TALIKDAN JOY OLIB,  
19-O'RINNI QAYD  
ETDI.

Yosh chempionlarni taqdirlash marosimidan so'ng mamlakatimizda shaxmatni yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisi Alisher Sa'dullayev hamda O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari Husan Turdaliyev so'zga chiqib, yoshlar o'rtasida sportning shaxmat turini yanada keng targ'ib qilish, mahallalarda havaskor va professional shaxmatchilar avlodini shakllantirish, yosh shaxmatchilarning xalqaro turnirlarda munosib ishtirok etishiga shart-sharoit yaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishda olib borilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumot berdi. Yosh shaxmatchilar, ularning ota-onalari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan samimiy muloqot o'tkazildi.



## Alisher SA'DULLAYEV,

O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisi:

- Bugun oldimizdagi asosiy maqsad Hindistonning Chennay shahrida bo'lib o'tadigan Butunjahon shaxmat olimpiadasiga terma jamoamizning munosib ishtirokini ta'minlashdir. Bu yil biz uchun mas'uliyatli yil bo'ladi. Sababi 28-iyul-8-avgust kunlari Hindistonning Chennay shahrida FIDE bo'yicha Bosh assambleya yig'ilishida 2026-yilgi Butunjahon shaxmat olimpiadasida mezbonligi uchun ariza topshirgan nomzodlar o'rtasida tender va taqdimot marosimlarida O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etadi. Agar biz ushbu tenderda g'alaba qozonsak, bu voqea O'zbekiston shaxmati kelajagi uchun tashlangan katta qadam bo'lar edi. Barchamizga yaxshi ma'lumki, yaqinda FIDENING yangi reytingi e'lon qilinganda O'zbekiston o'z tarixida ilk bor kuchli 20 talikdan joy olib, 19-o'rinni qayd etdi. Agar biz shaxmatni rivojlantirishga maksimal darajada ahamiyat qaratib, hozirgiday tizimli rag'batlantirish ishlarini davom ettirib, bor imkoniyatimizni ishga solsak, oldimizga qo'ygan maqsadimizni intizomli tashkil etsak, albatta, kuchli 3 talikka ham kirishimiz mumkin.

Ko'tarinki kayfiyatda tashkil etilgan tadbir so'ngida tashkilotchilar ommaviy axborot vositalari xodimlarini qiziqtirgan savollarga javob berdilar.

## IMKONIYAT

## INVESTITSIYA LOYIHALARI UCHUN IMTIYOZLAR



Prezidentimizning 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan hududlarda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (yoshlar sanoat zonalari) tashkil etilgan va bir qator imtiyozlar belgilangan.

Jumladan, patent asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni ta'minlovchi startap-investitsiya loyihalari, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsiya loyihalari, shuningdek, import o'rini bosadigan

va eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini yoshlar sanoat zonalarida joylashtirishda ustuvorlik beriladi.

### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Yoshlar sanoat zonalarida o'z investitsiya loyihalarini joylashtirish istagida bo'lgan yosh tadbirkorlik subyektlari quyidagi hujjatlarni tuman (shahar) investitsiyalar va tashqi savdo bo'limlariga taqdim etadi:

- investitsiya buyurtmanomasi;
- investitsiya loyahasining biznes-rejasi yoki texnik-iqtisodiy asosi;

-investitsiya loyihasi to'g'risida ma'lumotnoma.

Taqdim etilgan ma'lumotlar hamda hujjatlarning to'g'ri va ishonchilligi uchun yosh tadbirkorlik subyekti javobgar hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini joylashtirish to'g'risida ishchi guruhning qarori yosh tadbirkorlik subyekti tomonidan tegishli hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida qabul qilinadi hamda bu haqda ijobiy yoki rad etish to'g'risida xulosa berilishi shart.

Quyidagi talablarga javob beradigan investitsiya loyihalari yoshlar sanoat zonalari hududida joylashtirishda ustuvorlikka ega bo'ladi:

patent asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni ta'minlovchi startap-investitsiya loyihalari;

innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsiya loyihalari;

import o'rini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalari;

yaratiladigan yangi ish o'rinlarining kamida 70 foizi yoshlar uchun mo'ljallangan bo'lishi, bunda bandligi ta'minlanmagan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni ish bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalari.


# SAXOVATPESHA YETAKCHI E'TIROF ETILDI



**Obobokir  
Tursunov**

Namangan tumanidagi "Chag'ir" mahallasi yoshlar yetakchisi Obobokir Tursunov mahalla yoshlariga ko'mak berish uchun bor imkoniyatini ishga solayotgan yetakchilardan biri. U mahalla yoshlarining og'irini yengillatish maqsadida hudud aholisi uchun "Chag'ir MFY yoshlar yetakchisi" telegram kanalini yo'lga qo'ydi. Bu kanal orqali mahallada yordamga, ko'makka muhtoj yoshlarning ijtimoiy hi-moyasi uchun ham mablag'lar yig'iladi.

**M**ahalla yoshlaridan biri Islombek Abdumajidov ayni shu telegram kanali orqali to'plangan mablag' evaziga o'z sog'ligini tiklab oldi. Gap shundaki, Islombek Rossiya-ga ishlagani borib, qurilayotgan imoratning 7-qavatidan tushib ketadi va og'ir jarohat oladi. Tayanch harakat tizimi va bel dumg'aza qismi jiddiy shikastlanadi. Islomning davolani-shi uchun kerakli bo'lgan mablag'ni to'lashga esa oilasining qurbi yetmasdi. Boquvchisi-ni yo'qotgan bu oilaga mahalla ahli mazkur telegram kanali orqali zarur pullarni yig'ib berdi. Hozirgi kunda Islombek sog'ayib ketdi. Telegram kanal orqali esa boshqa yordamga muhtoj yoshlar uchun mablag'lar kelib tushi-shi davom etmoqda.



Obobokir Tursunov mahalladagi nogiron-ligi bor yoshlarga alohida ahamiyat beradi. Ularning orzu-istaklariga quloq tutadi, xo-hishlarini amalga oshirish uchun yana sa-xovatpesha kishilarga yuzlanadi. Mahallada-gi Xudoyberdi Sayfiddinov ham imkoniyati cheklangan yoshlardan. Mahalla yetakchisi u bilan suhbatlashib, uning eng katta orzusi qulay jihozlangan o'z xonasiga ega bo'lish ekan-ligini biladi. Bu masalada tuman hokimligiga murojaat qilib, kerakli uy jihozlarini ajratishga ko'ndirdi. Mahalladagi yoshlar bilan Xudoy-berdi uchun ajratilgan xonani ta'mirladi va o'zi istagandek jihozlab berdi.

Dehqanchilik qilish istagidagi yoshlarga o'n yil muddatga imtiyozli kredit asosida auk-sion orqali yer ajratilayotganidan xabaringiz bor. Ba'zan auksionda ishtirok etib, yerli bo'lish uchun ketadigan xarajatlar ham ayrim yoshlar-ga og'irlik qiladi. "Chag'ir" mahallasida ham ana shu xarajatlarni topishga qiynalayotgan yoshlar uchrab turadi. Bunday yoshlarga esa Obobokir ba'zan o'z hisobidan, ba'zan esa mahalla tad-birkorlarini jalb qilib, muammoni hal etib kel-moqda.

Bahodir Olimjonov ayni ko'mak sabab yer-li bo'lgan yoshlardan hisoblanadi. U 300 ming so'mlik yordam puli evaziga o'n yil muddatga 10 sotix yer olib, foydalanishga kirishdi. Bahodir ushbu yerdan unumli foydalanib, kungaboqar urug'ini qadadi. Hozirgi kunda 2 yarim million so'm daromad ko'rib, ikkinchi ekinga loviya ekish harakatida.

Obobokir Tursunov asli jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lgani bois mahallada sport-ga qiziqishi bor yoshlarga qo'lidan kelganча



**Iqbol PARDAYEVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

ko'maklashib kelmoqda. Ayniqsa, mahallaning iqtidorli yoshlaridan biri Shohsanam Usmonali-yevevaning voleybol o'yiniga qiziqishini ko'rib, unga oliy toifali murabbiy Saminjon Tursunovdan saboq olish imkoniyatini yaratib berdi. Natijada Shohsanam sportning voleybol turi bo'yicha yuksak natijalarni qo'lga kiritib kel-moqda. "Besh tashabbus olimpiadasi"da ham ishtirok etib, jamoasi bilan yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi.

Obobokirning jonkuyarligi, fidoyi va tirish-qoqligi bee'tibor qolmadi. U tuman va viloyat hokimligi tomonidan eng saxovatpesha yetakchi sifatida e'tirof etildi. Uning mehnatlari e'tirofga loyiq, albatta.

Bunday jonkuyar yetakchilar bor ekan, ma-halla yoshlari kelajakda vatanparvar, fidoyi, mehr-oqibatli farzandlar bo'lib yetishadi.



## YOZNI "KAMALAK" BILAN!



Ta'til vaqtida bolalarning iste'dodini ro'yobga chiqarish, bo'sh vaq-tlarini mazmunli tashkil etish, turli loyihalar orqali o'g'il-qizlardagi ijt-i-moiy faollikni rivojlantirish maqsadida Sirdaryo viloyati "Kamalak" bo-lalar tashkiloti Jizzax viloyatida joylashgan "Zomin" bolalarni sog'lom-lashtirish oromgohida "Yozni "Kamalak" bilan!" loyihasi o'tkazdi.

Loyihaga oromgohdagi 270 nafar bola qamrab olinib, faol yoshlar va viloyat Sardorlar Kengashi a'zolari-dan tuzilgan murabbiylar jamoasi ularga "Sardor kim?", "Kamalak va bolalik", "Vaqtini to'g'ri taqsimlash", "IT - zamon talabi", "Zamonaviy bolajon qanday bo'lishi kerak?", "Kitob o'qish-ning samarali usullari" kabi mavzu-larda seminar-treninglar o'tishdi.

Kunning ikkinchi qismida joriy yilgi "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovining respublika bosqichi g'olibi bo'lgan "Yoshlar ittifoqi" terma jamoasi to-monidan ijodiy chiqishlar namoyish etildi. Shuning bilan birga, guruhlar o'rtasida "Quvnoq raqslar" tanlovi tashkil etildi. Iste'dodli yosh san'atkor-lar tomonidan kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

"Yozni "Kamalak" bilan!" loyiha-si doirasida tashkil etilgan semi-nar-treninglar, tadbirlar, aksiyalar, musobaqalarda faol ishtirok et-gan bolalar, hamkor tashkilot va-killari diplom va "Yoshlar ittifoqi", "Kamalak" brendi ostidagi esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Nigora ORIFJONOVA,**

Yoshlar ittifoqining Sirdaryo viloyati kengashi axborot xizmati xodimi



# CHET TILLARNI BILISH TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI



Jahon andozlari asosida bilim olgan zakovatli, ilmiy salohiyatli olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlarning bir nechta tilda erkin gaplasha olishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga berilayotgan e'tibor zamirida shu ezgu maqsad mujassam.

Yurtimizda bu boradagi ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tomonidan sohaga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotir. Bunda davlatimiz rahbarining o'tgan yil 19-mayda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining shu yil 19-yanvarda qabul qilingan "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori dasturilamal vazifasini bajarimoqda.

## XORIJIY TILLARNI O'QITISH BO'YICHA ENG YAXSHI MAKTAB

Prezident sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi ham yoshlarning chet tillarga qiziqishini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yilning 4-mart kuni ushbu tanlovning dastlabki – tuman va shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Bu bosqichda 8 065 ta maktabning 40 325 nafar 7-9-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Ularning 37 075 nafari ingliz, 1 800 nafari nemis hamda 1 450 nafari fransuz tili bo'yicha baholandi.

Tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichi esa joriy yilning 14, 21, 28-aprel sanalarida o'tkazildi. Tanlov ishtirokchilari ilk bor o'qish (reading), tinglab tushunish (listening), yozish (writing) hamda leksik-grammatik bilimlarini baholashga qaratilgan test topshiriqlari asosida baholandi. G'olib jamoalarga tuman (shahar) bosqichida 1-3-o'rinlar uchun mos ravishda 100, 75 hamda 50 million so'm miqdorida

hamda viloyat bosqichida 250, 200 va 150 million so'm miqdorida vaucherlar taqdim etildi.

Tanlovning respublika bosqichida (joriy yilning avgust oyida) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 1 tadan maktabdan kelgan 70 nafar ishtirokchi 4 ta ko'nikma (listening, writing, speaking, reading) bo'yicha Buyuk Britaniyaning Cambridge Assessment English tashkilotining xalqaro Linguaskill testlari asosida sinovdan o'tkaziladi.

Mazkur sertifikat bo'yicha B2 va undan yuqori natija ko'rsatgan ishtirokchilarga respublikamiz oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida chet tilidan maksimal ball beriladi.

Yurtimizda 11 ta xorijiy til bo'yicha 35 ta xalqaro tan olingan sertifikat mavjud. Mazkur sertifikatlarning 6 tasi (TKT, TESOL, CELT, DELTA, IELTS va TOEFL) xorijiy tillar bo'yicha malaka va ko'nikmalarni baholovchi sertifikatlar

hisoblanadi. Agentlikka xalqaro TKT va Linguaskill testlarini o'tkazish bo'yicha Cambridge Assessment English tashkilotining rasmiy "Test markazi" maqomi (litsenziyasi) berildi. Bugungi kunga qadar 1000 dona Linguaskill va 500 dan ortiq TKT testlari xarid qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Qolaversa, til o'rganish istagida bo'lgan soha xodimlari, fuqarolar murojaatlarini qabul qilish uchun agentlik tomonidan maxsus telegram bot (@agency\_appeal\_bot) hamda agentlikning rasmiy veb saytida jonli chat o'rnatilishi natijasida 500 dan ortiq murojaat qabul qilinib, ularning yechimi topildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tuman (shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, asbob-uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash uchun mahalliy byudjetlardan 1 milliard so'mdan mablag' ajratilmoqda.

Hududlarda aholi orasida xorijiy tillarni ommalashtirish maqsadida 40 ta mahalliy, xalqaro forum va konferensiyalar, 320 ta seminar-trening va mahorat darslari, 36 ta til o'rgatish kurslari, 44 ta olimpiada va tanlovlar, 154 ta sinov testlari tashkil etildi.

Chet tillarni mukammal o'zlashtirgan yoshlarimiz kelajakda yetuk kadrlar bo'lishiga ishonamiz.

**Sanjar OBIDOV,**

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi direktori vazifasini bajaruvchi

## "HAYOT MEN UCHUN IMKONIYAT"

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, uning hech bir davri silliq kechmaganiga amin bo'lamiz. Hayotni "tanaffussiz dars" deb atash mumkin. Chunki har qadamda muammo va tashvishlar bisyor. Ehtimol, hayot doim qiyinchilik va zahmatlardan iborat bo'lgani uchun ham insoniyat bugungi taraqqiyot darajasiga yetib kelgandir.

Ruhiyatshunoslarning ta'kidlashicha, inson qiyinchiliklarga duch kelib, ularni yengib o'tish jarayonida ruhan yuksaladi. Xalq tili bilan aytganda, pishadi, chiniquadi, toblanadi. Shunday ruhiy qiyinchiliklardan o'tib kelgan qahramonimiz Barnoxon Narzullayevadir.

U 1991-yili Jizzax viloyatining G'allarol tumanida tug'ilgan. Shifokorlar unga tug'ilganida serebral faollilik (DSP) tashxisini qo'yishgan. Bu kasallik oqibatida inson asta-sekin yurolmaslik darajasigacha boradi. Avvaliga kasallik alomatlari sezilmagan, u hamma bolalar qatori yurgan, maktabga borgan. 18 yoshga yetganda esa u butunlay yurolmay qoladi.

Barno 1-guruh nogironi hisoblanadi. U yangi hunarga asos solgan hunarmandlardan, tasviriy san'at va zardo'zlikni umumiy lashtirib, yangi yo'nalish yaratgan va bu yo'nalish ancha ommalashib, ko'pchilikning qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Tengdoshimiz tabiat, qushlar va odamlar por-

retlarini ham biserdan bezak berish orqali yasaydi. U hunarini 20 yoshida hech bir ustozsiz mustaqil, havaskor sifatida boshlagan. Keyinchalik esa imkoniyatim cheklangan, deb hammadan uzoqlashib qolgan Barnoni odamlar orasiga olib kirgan, ko'plab tanlovlarda g'olib bo'lishiga sabab bo'lgan aynan shu hunaridir.

– Men uchun 2021-yil omdali bo'ldi, – deydi Barnoxon Narzullayeva. – Shu yili yanvar oyida Jizzax ixtiroi – "Oltin fond" daftariga kiritildim. Mart oyida Respublika Qizlar forumida ishtirok etdim, "Yosh kuch" jurnalida ham kichik mehnatlarim e'tirof etildi. Aprel oyida ijodiy ishlarim O'zbekiston Respublikasi Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogiga kiritildi. May oyida "Besh tashabbus" forumida ishtirok etdim. Iyun oyida "Tashabbus-2021" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdim. Noyabr oyida Adliya vazirligi hamda Respublika Nogironlar jamiyati hamkorligida o'tkazilgan "Biz birgamiz" ijtimoiy loyihasida ishtirok etdim. 2021-yil 28-avgust O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi estalik nishoni bilan taqdirlandim.

Barno shug'ullanayotgan hunar insondan katta sabrni talab qiladi. Ammo shunday go'zal sabr ortidan natija ham shunga yarasha bo'ladi. Bitta o'rtacha ishingiz uchun qancha vaqt sarflaysiz,

deb so'raganimizda: "Kichikroq ish uchun hafta, portretlar uchun esa ko'proq. Misol uchun, Zahiriddin Muhammad Bobur portretini yasashim uchun 2 oy vaqt ketgan. U hajm jihatidan ham ancha katta edi", deb javob berdi. Bu asar Jizzax hokimligi tomonidan Qozog'iston delegatsiyasiga sovg'a sifatida berilgan.

Qahramonimizdan ishingizdan qanchalik zavq olasiz, deb so'raganimizda: "Ishlash jarayonida yangi g'oyalarni paydo bo'ladi. Ba'zan sukut qilib ko'p narsalarni o'ylayman. Hech qachon ishlarim uchun narx baholamagan ekanman. Bu ham ishimni yaxshi ko'rishimdan darak bo'lsa kerak", degan javobni oldik.

Barno hozirgi kunda o'z bilganlarini shogirdlariga ham o'rgatib kelmoqda. Misol uchun, Shahlo ismli shogirdi o'tgan yili "Kamalak yulduzlari" ijodiyoti festivalining respublika bosqichi laureati bo'ldi. Hunarmand hozirgi kunda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining tasviriy san'at yo'nalishida 2-bosqichda ta'lim olyapti. Qahramonimiz Prezidentimiz tomonidan "Jasorat" medali bilan taqdirlangan.

U o'ziga berilgan hayotni imkoniyat deb biladi va bu imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qiladi. Barno imkoniyati cheksiz yoshlardan biri. Uni ko'pgina insonlarga o'mak qilib ko'rsatsa arziydi.

**Mashhura NASRIDINOVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



# YAPONIYA TA'LIM TIZIMI: BO'LAJAK MENEJERNING TAASSUROTTLARI QANDAY?

Xorijda ta'lim olishni, chet elga sayohat qilishni istamaydigan yosh yo'q oramizda. Barchaning qalbida ma'lum darajada shunday istaklar bor. Kimdir allaqachon bu istaklariga erishib ham ulguragan. Albatta, chet elda o'qish juda foydali, chunki bunday yoshlar atroflicha fikrlashni o'rganadi, yurtimizda rivojlanmay qolgan yoki umuman mavjud bo'lmagan sohalarning o'sishiga yordam beradi. Ular dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida bo'lib qaytishi esa juda quvonarli.


Mana shunday yoshlardan biri Bobur Ergashev Yaponiyaning Meysey kibernetika institutida biznes menejment yo'nalishida tahsil oladi. U bilan Yaponiyadagi ta'lim va talabalar hayoti mavzusida suhbat qurdik.

**– Xabaringiz bor, ba'zi yoshlar orasida xorijga "surish kerak" degan gaplar yuradi. Bunga nima sabab deb o'ylaysiz? Va nega siz va siz kabi yoshlarning ko'pchiligi Yaponiyani tanlashadi?**

– Menimcha, birinchi o'rinda qiziqish sabab deb o'ylayman. Inson o'smirlik davrida nimanidir o'zgartirishga intiladi. Kinolar va jitimoiy tarmoqlar sabab chet el hayotiga qiziqadi va boshqa davlatlarda yashashga, o'qishga harakat qiladi. Yaponiyada o'qishga hujjat topshirish jarayoni boshqa davlatlarga qaraganda ancha keyinroq tugaydi. Misol uchun, Amerikaga o'qishga topshirib kira olmasangiz o'sha paytning o'zida Yaponiyada o'rnangizni sinab ko'rish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, Yaponiya xavfsiz davlat hisoblanadi, qurol ko'tarib yurish mumkin emas, inson huquqlari o'z joyiga qo'yiladi. Men ham yuqoridagi sabablardan tufayli bu yerga kelganman.

**– Nega biznes menejment yo'nalishini tanladigiz?**

– Har bir inson o'z qiziqishlaridan, yashash tarzidan kelib chiqib yo'nalish tanlaydi. Yoshligimdan kimdir aytgan ishni bajarishga odatlanmaganman, shuning uchun ham menejment yo'nalishini tanlaganman. Kimdir aytganini shunchaki bajarish emas, o'sha bajariladigan mexanizmlarni o'ylab topilish jarayonida ishtirok etishni xohlayman. Yaponiya biznes moduli dunyo bozorida



HAR BIR INSON O'Z QIZIQISHLARIDAN, YASHASH TARZIDAN  
KELIB CHIQUIB YO'NALISH TANLAYDI. YOSHLIGIMDAN  
KIMDIR AYTGAN ISHNI BAJARISHGA  
ODATLANMAGANMAN.

alohida ahamiyatga ega. Birdaniga katta rivojlantirish, bir xil amalni bajarish emas, har kuni juda oz bo'lsa-da rivojlanish kerak, degan oltin qonun bor. Uzoq muddatli rejalar tuzgani sababli ham kompaniyalar dunyo reytingida kuchli o'ntalikda turadi. Ulardagi ish uslublarini o'zimizda ommalashtirish, juda yaxshi o'zgarishlar bo'ladi.

**– Yaponiyada ta'lim tizimi qanday?**

– Yaponiya ta'lim sistemasi butun dunyo tomonidan tan olingan. Ayniqsa, Masaru Ibunkaning "Uchdan keyin kech" asari bestseller darajasiga ko'tarilgan. Bu yerdagi qo'g'ozbozlikdan butunlay voz kechilgan. Daraslarda ko'proq taqdimotlar tayyorlaymiz. Shu orqali muammo va mavzuga nisbatan kreativligingiz, shaxsiy fikringiz, yondashuvingiz oshadi. Kelasi darsni o'tishdan oldin uyga vazifa qilinadi. Ya'ni avval uyga vazifa qilamiz, keyin darsga boramiz. Dars o'tilgan paytda tushunmagan narsalarimizni so'rab olamiz.

"Team working"ga katta ahamiyat berishadi, asosan 5-10 ta odam bir guruh bo'lib, bir-birini eshitib vazifalarni bajaradi. Har xil davlatdan talabalar bo'ladi, ularning fikrlashi, bir mavzu bo'yicha qarashlari boshqacha. Biror vazifa berilganida ularning fikrini eshitib, "faqat bunaqa yo'li bor deb o'ylardim, bu tomondan yondashsa ham bo'lar ekan" deysiz. Shu orqali har bir muammoga global darajada qarashni o'rganasiz. Yana bir narsa bor, ya'ni real holat-

dagi keyslarda dars o'tiladi. Misol uchun, ekonomika darsida kitoblardagi ma'lumotlar bilan hozirgi davr solishtiriladi. Chunki kitob yozilganidan so'ng ko'p usullar, yechimlar o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Kitobni o'zing o'qib qo'yaverasan, bu yerda, asosan, aloqa va muloqot orqali o'rganish muhim deb hisoblashadi.

**– Sizningcha, Yaponiyada o'qishning yomon tomonlari ham bormi?**

– Yaponiyada davomat juda muhim, lekin bu menga yoqmaydi. Ishda ham, o'qishda ham davomatga katta e'tibor beriladi. Menga yoqmaydigan jihatlardan yana biri oila va yaqinlaringizdan uzoqda yashashdir. Xohlaysizmi-yo'qmi, atrof-muhit ta'sir qiladi va robotlashib qolasiz. Yaponlar judayam harakatchan, ko'p ishlaydigan xalq. O'qish va ishdan ortib, dam olishga vaqt topolmaysiz. Yana bir muammo yashash va ovqatning narxi qimmat. Musulmonlar uchun taomlar ozgina muammoroq, halol mahsulot topishga qiyinalasiz. Shu bois yeyotgan narsalaringizga e'tiborli bo'lishingiz kerak.

**– Tengdoshlaringizga Yaponiyada o'qishni maslahat berasizmi?**

– Albatta, faqat istardimki, o'qish uchun kelib, keyin ishga o'tib ketmasliklarini. Chunki bu yerda ishlab, juda yaxshi daromad qilsa bo'ladi, lekin o'qish qolib ketadi. Atrofimda bunday insonlar juda ko'p.

Shuning uchun, avvala, yaxshilab o'ylab, maqsad qo'yib kelish kerak. Maqsadlari aniq bo'lgan inson o'zi kutganidan-da ko'proq narsa o'rganadi. Aslida hamma joyda ham faqat o'z ustida ishlagan talabalargina yutadi. Masalan, O'zbekistonda o'zi internetga kirib, qo'shimcha ma'lumotlar o'rganib, kuchli mutaxassis bo'lgan talabalarni taniyman. Chet elda o'qisangiz, butun e'tiboringiz o'zingizga qaratiladi, qarindosh-urug', ota-ona, sizni har kuni pleysteyshn o'ynagani chiqiradigan do'stlar bo'lmaydi. Bu yerda iqtisodni o'rganib borasiz, topgan pulingizni to'g'ri sarflash tajribasi ortadi. Misol uchun, avvaliga ko'p pul ishlatib yuborasiz, yetmaydi. Keyin qiyinalasiz, so'ng "haftada buncha ishlatsam, buncha qoladi", degan fikr, bir kishilik bo'lsa ham ro'z'oringiz bo'ladi. Pul berib baho ololmaysiz, ustozlar amakingiz yoki tog'ingizning qarindoshi emas. O'z intilishlaringiz bilan natijaga erishasiz.

**– Kelgusidagi rejalaringiz haqida to'xtalib o'tsangiz?**

– Inson o'zi o'rganayotgan sohani sevsa, e'tiborini qaratib shug'ullansa, albatta, natijaga erishadi. Xoh Yaponiyada bo'lsin, xoh O'zbekistonning chekka qishlog'ida bo'lsin. O'qishni tugatib yurtimga qaytgach soham bo'yicha yangi loyihalari qilmoqchiman. Buning uchun ilk navbatda bilim va tajriba orttirishim kerak.

**– Fikrlaringizdan menda ham Yaponiyaga nisbatan qiziqish paydo bo'ldi. Bergan ma'lumot va maslahatlaringiz uchun rahmat.**

– Taklifingiz uchun tashakkur. Gazetangiz faoliyatiga omad tilayman!

Shahribonu RAHMATOVA suhbatlashdi



## RO'YXATGA OLISH BO'LIMLARI

**Toshkent shahridagi Ro'yxatga olish bo'limi xodimlariga boshqarma tomonidan maxsus guvohnomalar topshirildi.**

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 11-noyabrdagi 710-son qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-iyuldan boshlab respublikamizning barcha tuman va shaharlarida Ro'yxatga olish bo'limlari ish boshlagan edi.

Bo'limlarning asosiy vazifasi tuman (shahar) aholisiga aholini ro'yxatga olishning maqsadi va ahamiyatini tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, kadastri organlari bilan birgalikda mahalla xaritalarini yangilash, ro'yxatga olish jarayonlariga jalb etiladigan xodimlarni tanlash va ularni o'qitish, ro'yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazishdan iborat.

Bobur MELIYEV,

Yakkasaroy tumani statistika bo'lim boshlig'i

## REGISTONDA NIKOHDAN O'TGAN AMERIKALIK JUFTLIK



**Insonlar hayotidagi unutilmas kunlarni o'zgacha tarzda nishonlashni istaydi. Nikohdan o'tish marosimini dunyoning eng mashhur joylarida va sevgi tarixi boshlangan nuqtalarda o'tkazuvchi insonlar ham juda ko'p. Marshall Mayer va Ebru Sanning nikoh marosimi ham yodda qolarli bo'ldi.**

AQShlik Marshall va Ebru o'zlarining ilk romantik uchrashuvini 2020-yil 4-iyul kuni "Brighton - Beach"dagi sevimli o'zbek restorani "Nargis Cafe"da tashkil etgan. O'zbek oshxonasi, milliy taomlari, o'ziga xos shukhi ularga juda yoqar edi. Shu sabab 4-iyul va o'zbek restorani ular uchun eng qadrlil sana va joyga aylandi.

Marshall Mayer aslida amerikalik bo'lib, 2012-yilda oilasi bilan Turkiyaga kelgan va Istanbulda ilk marta Ebruni uchratgan. Ebru shu yerdagi restoranda mutaxassis bo'lib ishlardi. O'sha kundan so'ng

ular qayta uchrashishmagan. 2020-yil karantin paytida taqdir qahramonlarimizning yo'lini yana kesishtirdi. Ikki yillik sayohatlaridan so'ng ular nikoh marosimini hech ikkilanmasdan yer yuzining sayqali bo'lgan Samarqand shahridagi qadimiy Registon maydonida o'tkazishga qaror qildi.

2022-yil 4-iyul kuni Registon maydonida ikki yoshning nikoh marosimi bo'lib o'tdi va ularning orzusi amalga oshdi. Har ikki mehmonning fikricha, Samarqand sivilizatsiyalar chorrahasi, manguilik va albatta, muhabbatni o'zida mujassam etgan makondir.

"Bundan 3 yil muqaddam Samarqandda bo'lganman. Nazarimda, bu yer dunyodagi eng chiroyli joylardan biri. Hozir o'zbeklarning urf-odatlarini o'rganaymiz. Nikohdan o'tish uchun O'zbekistonni tanlaganimizda boshqa joyni o'ylab ham ko'rganimiz yo'q. Tarixiylik ufurib turgan maskanda nikohdan o'tishimiz juda ham hayajonli va o'zgacha bo'ldi. Bir umr yo-

dimda saqlanib qoladi", - deydi **Marshal Mayer.**

Ebru San esa o'zining Samarqand haqidagi azaliy orzulari to'g'risida shunday deydi: "O'zim Turkiyada tug'ilganim bois yoshligimdan Samarqand va uning tarixiga qiziqardim. Qarangki, hayotimning eng unutilmas damlari orzumdag shaharda amalga oshdi. Mustaqil hayotimiz boqiy shaharda boshlanganidan juda xursandman".

Ularga nikohdan o'tganligi haqidagi guvohnoma tatanali ravishda topshirildi. Juftlik mo'jizakor Registon maydonida suratlariga tushib, quvonchli damlarini tarixga muhrlashdi.

Bu xorij fuqarolarining mam-lakatimizga kelib nikohdan o'tishi bilan bog'liq ilk voqea bo'ldi. Kelgusida ham shunday juftliklarning tashrifi yurtimizning turizm faoliyatiga katta foyda olib kelishiga ishonamiz.

**Shahribonu RAHMATOVA,**

"Yoshlar ovozi" muxbiri



## LOYIHA G'OLIBI ANIQLANDI



**Yoshlarni kitobxonlikka targ'ib qilish va kitobxonlarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan "Birga o'qiyimiz!" loyihasining 5-son g'olibini tanishtirmoqchimiz: Nurmurodova Sarvinoz Mansur qizi.**

Ayni paytda u Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi. Braziliyalik yozuvchi Paulo Koelo qalamiga mansub "Alkimyogor" asari yuzasidan tuzilgan savollarga batafsil va birinchi bo'lib javob yo'llagan uchun g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchimizni tahririyat nomidan tabriklaymiz hamda jahon va o'zbek adabiyotining eng sara 5 ta kitobini sovg'a qilamiz.

Shuningdek, faol ishtiroki uchun: **Mohinur Islomova, Shahzodbek Qayumov, Dilorom Jo'rayeva, Ismigul Yo'lchiyeva** tashakkur aytamiz!

Buyuk yozuvchi Andrey Upit kitobni hayotning eng olis va qorong'i yo'llariga nur baxsh etgan afsonaviy chiroqqa qiyoslagani bejiz emas. Hayot yo'llaringizda hamisha yo'ldosh bo'luvchi chirog'ingiz o'chmasligiga tilakdoshmiz.

Loyiha muallifi

**Ziyoda RAHIMBOYEVA**

## YANGI KUTUBXONA VA 5000 TA KITOB

tanlovdagi g'oliblik uchun mahallamiz yoshlariga taqdim etildi

Besh tashabbus olimpiadasi

Sho'x edim, aytganidan qaytmaydigan, o'jarligim ham bor edi biroq. Shunday kunlarning birida o'rtoqlarim bilan "Uzoqqa sakrash" o'ynab, oyog'imni shisha tilib ketgan. Jarohat og'irligi sabab yura olmay qolgandim. Maktabimiz uyimizdan ancha olisda edi. Dadam kombayn haydagani uchun uyimizga haftada bir kelardilar. **Onam sho'riq har kuni meni yelkalariga opichlab maktabga tashlab kelardilar. Darslar tugagach, yana olib ketardilar.** Deyarli bir chorak shunday o'qiganman. Onamning uy, dala ishlaridan ortib, bilim olishim uchun ko'tarib olib borayotganidan hijolat chehib, o'z-o'zimga eng bilimli, salohiyatli qatorida bo'laman, deb va'da bergandim.

Akademik litsey va oliy ta'lim muassasalaridan "Farzandingizni yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalab, el koriga kamarbasta qilib, yosh avlod safiga qo'shganingiz uchun Sizga tashakkur", degan rahmatnomalar kelganida ota-onamning ko'zlarida qalqigan sevinch yoshlari hali hamon yodimda.

Shukur, faoliyatimda ham qiyinchilikka uchramadim. Ma'rifatli turmush o'rtoq, qaynona, qaynota, ilmni qadrllovchi ustoz uchradi menga. Ularning duolari-yu saboqlari sabab unib, o'syapman. O'z ustimda ishlab qator yutuqlarga erishdim. "Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi" tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan "Zukko kitobxon" respublika tanlovida mahallamiz jamoasi bilan

ikki karra g'oliblar safidan o'rin egallab, 5000 ta kitobni mahallamizga olib keldik. Quvonarlisi, Yoshlar kuni doirasida tashkillashtirilgan tabirda Prezidentimiz bilan uchrashish baxtiga musharraf bo'ldim.

Prezidentimizning: **"Bu o'g'il-qizlarimiz xalqimizning oltin fondi, Uchinchi Rennans bunyodkorlari, desam mubolag'a bo'lmaydi"**, deya aytgan so'zlari haligacha qulog'im ostida jaranglamoqda.

Ayni damlarda oldimga yana bir ulkan maqsad qo'ydim. Nafaqat mahallamiz, balki tumanimiz yoshlarini ham davlatimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan bo'lib ulg'ayishlarida ilkimdan kelganicha harakat qilaman. Tashkillashtirilayotgan yangi kutubxona orqali o'sib kelayotgan yosh avlodlar orasida kitobxonlikni keng yoyib, bilim doirasini kengaytirish yo'lida bor kuch-g'ayratimni safarbar etaman...

Buyuk faylasuf Suqrot "Mening donishmandligim, hech narsani bilmasligimni bilishimdadir", degan ekan. Poytaxtda qariyb to'rt kun mobaynida kitob ila do'st tutinib, qadr topgan tengdoshlarim bilan muloqot qilib, kelgusidagi rejalarimiz bilan o'rtoqlashish jarayonida mutafakkirning ana shu jumlarini qalbim tubiga muhrladim, toki mutolodan, ilm olib izlanishdan bir lahza to'xtagan onimda olg'a qadam tashlash uchun o'zimdagi kuch topish, ezgulik yo'lidan og'ishmaslik uchun.

**Nargiza MAVLONOVA,**

"Zukko kitobxon" respublika tanlovi g'olibi

# BEPUL TARQATILAYOTGAN BEBAHO XAZINA

“

Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadriini anglab yetadi”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlari bilan boshlanuvchi 8 tomlik “Jadidlar” to'plami qisqa vaqt ichida mashhurlikka erishdi. Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan nashr etilgan “Jadidlar” to'plamini avgust-sentabr oylari davomida maktablar, professional va oliy ta'lim muassasalariga – barcha ta'lim tashkilotlarining kutubxonalariga bepul yetkazish rejalashtirilgan.

Jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgan to'plamdan 2 200 taga yaqini bepul tarqatildi. Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev o'zining telegram kanalida bo'lib o'tgan ovozi suhbatda “Kitoblar sotuvga chiqariladimi?” degan savolga shunday javob berdi: “Kitoblar ta'lim muassasalariga to'liq yetib borganidan so'ng, sentabr oyidan



J  
A  
D  
I  
D  
L  
A  
R

boshlab sotuvga chiqarmoqchimiz. Agar ta'lim muassasalariga to'liq yetib bormasdan turib sotuvga chiqsa, ta'lim dargohlari uchun ajratilgan kitoblar ham yarim yo'lda sotuvga chiqib ketishi mumkin. Shu sababli avval barcha ta'lim tashkilotlariga bepul yetib borishi ta'minlanib, keyin sotuvga chiqarilishi mumkin”.



Bejirim, o'qishga va olib yurishga qulay kitoblar har bir qutichali qadoqda 8 tadan bo'lib, millatning eng yetakchi jadidlari haqida ma'lumot beruvchi, ularning hayot yo'li, faoliyati, hikmatli so'zlari va e'tiroflaridan iborat bo'limlarga bo'lingan.

G'ulom Zafariy, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon To'ra Ibrat, Abdurauof Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja

Behbudiy haqida faktlar bilan birga yangi bilimlarni ulashishga tayyor kitoblarni o'qigach yoshlar ongida ularga nisbatan hurmat ortishi aniq.

Har qanday soha vakili uchun kerakli va zarur bo'lgan to'plamni tayyorlash va 23 ming nusxada chop etish uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 1 milliard 416 million 800 ming so'm ajratilgan. 4 oy davomida loyiha muallifi Alisher Sa'dullayev boshchiligida millatimizning ziyoli vakillari, professor, fan doktori va dotsentlari qizg'in ish olib bordi. Endilikda siz, aziz yoshlarda bu bebaho xazinadan foydalanib, xalqi uchun o'z jonini ham ayamagan fidoyi insonlar haqida bilib olish imkoniyati bor, mutolaga shoshiling!

**Ziyoda RAHIMBOYEVA,**  
“Yoshlar ovozi” muxbiri



**YOSHLAR  
OVOZI**

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ari maviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tanlidi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100055, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

“Shara” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxanasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxonaning manzili: Buyuk turen ko'chasi, 41. Indekstar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-755, Adadi – 10598, Bosishga topshirish vaqti – 21.00, Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6